



## BUYRUQ

Toshkent shahri

№ 10 «24» yanvar 2023 yil

### **Avtomobil yo'llari qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida**

Avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, Qo'mita faoliyatining ochiqligi va shaffofligini hamda uning fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-sonli Farmoniga muvofiq **buyuraman:**

1. Avtomobil yo'llari qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangi tarkibi 1-ilovaga muvofiq hamda Avtomobil yo'llari qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash metodikasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qo'mitaning 2018 yil 7 iyuldagi 292-sonli buyrug'ining 1-ilovasi bekor qilinsin.

3. Umumiy bo'lim (Azimova) mazkur buyruqni Qo'mita markaziy apparati va barcha tizim tashkilotlariga yetkazsin.

4. Ushbu buyruq ijrosining qonunchilikda o'rnatilgan tartibda nazorati raisning birinchi o'rinbosari Sh.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Qo'mita raisi

A handwritten signature in blue ink, appearing to read 'A. Abduvaliev', written over a white background.

A. Abduvaliev